

ISHLAB CHIQARISH TA’LIMI USTALARINING TA’LIM JARAYONIGA TAYYORGARLIGI

Xaydarov Botir Mashrapovich

*Professional ta’limni rivojlantirish instituti “Innovatsion ta’lim texnologiyalari” kafedrasiga
katta o‘qituvchisi +998905640907 haydarov.1962@mail.ru*

Annotatsiya

Maqolada Professional ta’lim muassalarida faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish ta’limi ustalarining mas’uliyatlari, kasbiy faoliyatni sifatli amalga oshirish uchun o‘quvchilarni qabul qilishga tayyorgarlik, metodik tayyorgarlik, o‘quv materiallarini tayyorlash, mavzuni o‘rganish uchun tayyorgarlik, amaliy mashg‘ulotni o‘tkazishga tayyorgarlik hamda texnik vositalarni tayyorlash ishlari yoritilgan va ularning mazmunlari ochib berilgan.

Kalit so‘z va iboralar

Professional ta’lim, ishlab chiqarish ta’limi ustasi, o‘quvchilar, qabul qilishga tayyorgarlik, metodik tayyorgarlik, o‘quv materiallarini tayyorlash, amaliy mashg‘ulot, texnik vositalar, trenajyorlar.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida mutaxassislarni tayyorlashga katta e’tibor berilmoxda, chunki chinakam mutaxassislar soni ko‘payishi bilan davlatimizda o‘z-o‘zidan yoshlar va xotin-qizlarni bandligi ta’milanadi, aholining daromadi oshadi va bu o‘z navbatida kambag‘alchilikni qisqarishiga olib keladi. Bularning natijasida Davlatimizning iqtisodiy yuksalishida har bir mehnat qilayotgan kishining ulushi oshib boradi.

Ma’lumki har qanday mutaxassisni tayyorlash uchun unga kasb sirlarini ochib beruvchi va kasbiy mahoratni shakllantiruvchi yuqori malakali mutaxassis, ya’ni, uning ustozi bo‘lishi kerak. Professional ta’lim tizimida kasbiy malakalarni shakllantirishdagi ustozlikni ishlab chiqarish ta’limi ustalari (keyingi matnda Usta deb yuritiladi) zimmasiga yuklatilgan. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bugungi kunda davlatimizning kasbga tayyorlash siyosatida Ustalarga katta mas’uliyat yuklatilgan.

Bugungi kun talabiga javob beradigan Ustadan har tomonlama o‘z ustida ishlashi, yangi bilimlarni egallashi hamda o‘quvchilarda kasbiy mahorat asoslarini shakllantirish uchun ta’lim jarayoniga puhta tayyorgarlik ko‘rishi kerak.

1. O‘quvchilarni qabul qilishga tayyorgarlik. O‘quvchilarni qabul qilish jarayonida ishtirok etish va o‘quvchilar guruhini shakllantirishda ishtirok etish Ustaning yangi o‘quv yiliiga tayyorgarligining muhim bosqichidir, chunki bo‘lajak o‘quvchilar bilan tanishish unga darslarni birinchi kunlaridanoq o‘quv ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Shuning uchun o‘quv yili boshlanishidan oldin umumta’lim maktablarda kasbga yo‘naltirish ishlarida Usta faol ishtirok etishi kerak. Umumta’lim maktab o‘quvchilari va ularning ota-onalarini professional ta’limi muassasasida o‘qitiladigan kasb, o‘qishga qabul qilish, o‘qish shartlari, kelajak kasbiy istiqbollari bilan o‘zi tanishtiribgina qolmay, balki suhbatlar o‘tkazishga professional ta’lim muassasasining o‘quvchilarini jalb etish tavsiya etiladi. Ular o‘zlarining o‘qishlari,

muvaffaqiyatlari, kasb o‘rganish sharoitlari, pedagoglar haqida gapirib beradilar, amaliy mashg‘ulotlarda o‘z qo‘llari bilan tayyorlagan mahsulotlarni namoyish qilishlari hamda mакtab o‘quvchilarini qiziqtirgan savollariga o‘z vakolati doirasida javob berishi mumkin.

Ustaning vazifalari faqat maktabda kasbiy yo‘naltirish ishlari bilan chegaralanmasdan u qabul komissiyasi ishida va o‘quv guruhini shakllantirishda ham bevosita ishtirok etishi kerak. Yangi o‘quvchilarni har biri haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish uchun Usta nafaqat ularni shaxsiy ishlari bilan batapsil tanishishi, balki yangi o‘quvchilarni nimaga qiziqishini, qayerda va qanday o‘qiganini, umumta’lim maktabida qanday ijtimoiy ishlarni olib borganini ham bilishi kerak.

2. Metodik tayyorgarlik. Ustaning yangi o‘quv yiliga metodik tayyorgarligi butun o‘quv yili davomida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishga ta’sir qiladi. Shuning uchun, metodik tayyorgarlik puxta o‘ylanib tayyorgarlik qilinishi kerak.

Kvalifikatsiyalar bo‘yicha yuqori malakali ishchini tayyorlash uchun ishlab chiqarish ta’limi ustasi o‘quvchilar o‘qishning qaysi davrida qanday bilim, ko‘nikma, malaka hamda qanday ketma-ketlikda ularni o‘zlashtirishi zarurligini aniq tasavvur qilishi kerak. Buning uchun u o‘quvchilar tanlagan kasbga tegishli malaka talablari, kasb tavsiflari, amaliy mashg‘ulotlar va nazariy darslarning o‘quv dasturlari hamda maxsus texnologiyalarni o‘rganishi lozim. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazishga taalluqli metodik tavsiyalarni batapsil o‘rganish kerak. Ishlab chiqarish ta’limi ustasi professional ta’lim muassasasida qanday materiallar borligi yoki yo‘qligini oldindan bilib olishi va kamchiliklar haqida rahbariyatga yozma ravishda xabar berishi kerak.

Novatorlar tajribasi, zamonaviy texnika va ilg‘or texnologiyadan foydalanish Ustaning e’tibordan chetda qolmasligi kerak, chunki ulardan ta’lim jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ilg‘or tajribalar bilan tanishish uchun korxonalar bilan oldindan hamkorlik o‘rnatilgan bo‘lishi zarur.

O‘quvchilarni yanada samarali o‘qitish va tarbiyalash uchun ishlab chiqarish ta’limi ustasi doimiy ravishda kasbga oid materiallarni o‘rganib borishi kerak. Buning uchun internet, televideniye, jurnallar, gazetalar va hokazolarda eng yaxshi tajribalarni kuzatib o‘rganib boriladi.

3. O‘quv materiallarini tayyorlash. O‘quv ustaxonalar, o‘quv moddiy-texnik bazasini yangi o‘quv yiliga tayyorlash deganda eski jihozlarni ta’mirlash, yangi jihozlarni o‘rnatish, o‘quvchilarning ish joylarini qayta jihozlash, zarur asbob-uskunalar, jihozlar, materiallar va o‘quv ishlari ro‘yxatini tuzish, texnologik hujjatlarni ishlab chiqish, ko‘rgazmali qurollarni yangilash yoki ta’mirlash, o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqish va boshqalar tushuniladi.

Usta o‘zida mavjud bo‘lgan asbob va moslamalarni o‘z vaqtida ta’mirlashga, yangilarini olishga, o‘quv ustaxona va ish joylarini jihozlash tartibiga alohida e’tibor berishi kerak. Shu bilan birga, asboblar va moslamalarning xizmatga yaroqliliginini, mehnat xavfsizligi talablariga javob berishini ta’minlash kerak.

Ma’lumki, o‘quvchilarni kasbga bo‘lgan mehri professional ta’lim muassasasi, ustaxona va undagi ish joyiga bo‘lgan ilk taassurotidan boshlanadi. Shuning uchun Ustaning ushbu

jihatlarga ko‘proq etibor berishi muhim sanaladi. O‘quvchi ilk bor ta’lim muassasasining ostonasiga qadam qo‘yan kun uning butun umri davomida muhim va quvonchli onlar sifatida yodida qolishi maqsadida barcha kerakli sharoitlarni yaratishi kerak. Buning natijasida o‘quvchining qalbida talim muassasasi va egallayotgan kasbiga nisbatan g‘urur va iftixor tuyg‘usi namoyon bo‘ladi.

Yuqori kurslarning o‘quv guruahlari bilan mashg‘ulotlarga jiddiy tayyorgarlik ko‘rishni e’tibordan chetta qoldirmaslik kerak, chunki ular birinchi davrdan (asosiy operatsiyalarni bajarish texnikasi va dastlabki ko‘nikmalarini o‘zlashtirish)dan o‘tib ustaxonalarda va ishlab chiqarish amaliyotida o‘qitishning ikkinchi va uchinchi (asosiy va yakuniy) davrlariga o‘tadilar.

Ta’lim jarayoniga tayyorgarlik ko‘rayotgan Usta o‘quvchilar tomonidan zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishda yuqori samaradorlikka erishish uchun amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikasi va o‘quv jarayonini moddiy-texnik jihozlash rejasini oldindan ishlab chiqishi kerak. Amaliy mashg‘ulotlar rejani tuzishda usta amaliyot dasturiga va tarbiyaviy ish turlari ro‘yxatiga tayanishi kerak. O‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari o‘quv dasturlarining har bir mavzusini maqsadlarini ochib berish, shuningdek nazorat va kompleks ishlarini o‘tkazish, texnologik ishlov berish jarayonlarini tuzish, ekskursiyalar, korxonalar rahbarlari va novatorlari bilan uchrashuvlar o‘tkazish uchun maxsus fanlar o‘qituvchilari bilan ishlarini muvofiqlashtirish kerak.

4. Mavzuni o‘rganish uchun tayyorgarlik. Usta o‘quv dasturining navbatdagi mavzusini o‘rgatishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qanday texnik adabiyotlardan foydalanish kerakligi, qanday texnik va texnologik hujjatlар tayyorlash zarurligi, tayanch korxona yetakchi ishchilarning tajribasidan nimani o‘zlashtirish mumkinligini ko‘rib chiqishi, mehnatni tashkil etishning qanday usullari bilan qanday natija olish mumkinligi haqida obdan o‘ylab ko‘rishi lozim.

Ishlab chiqarish ta’limi ustasi har bir mavzuga tayyorgarlik ko‘rayotganda o‘quvchilar tomonidan qanday operatsiyalar, ish usullari, mashqlar bajariladigan kerakli mashqlar, ishlarning ro‘yxati, amaliy mashg‘ulotning moddiy-texnik jihozlarini yoki uskunani ishga tushirish, ishlatish va texnik xizmat ko‘rsatish vaqtida nimalarga e’tibor berish kerak, mahsulotni tayyorlash va sifatini nazorat qilish, o‘quvchilarni mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilishni o‘rgatish, asboblarni ehtiyyotkorlik bilan ishlatish va ushbu mavzu bo‘yicha o‘quv materialni o‘rganishda o‘quvchilarni qanday faollashtirish usullarini aniqlashi kerak.

Ishlab chiqarish ta’limi ustasi har qanday kasbga o‘rgatishda uzoqroq vaqt talab qiladigan ish usullari mayjudligi, ammio o‘quvchilarning malakasi va ularning mutaxassis sifatida shakllanishi aynan shu usullarga bog‘liq bo‘lishi mumkinligini yodda tutishi kerak, biroq, ko‘pincha bu usullar o‘quvchilar uchun zerikarli ko‘rinadi. Darsni yanada qiziqarliroq qilish, o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilish uchun usta o‘quv materiallar ustida puxta o‘ylab ko‘rishi va darsni shunday tashkil qilishi zarurki, o‘quvchilar mashqlarni to‘g‘ri bajarish zarurligini va kelajak kasbiy faoliyatida undan foydalanishini anglab yetishi kerak. Eng muhimi shundaki, o‘quvchilar amaliy mashg‘ulot topshiriqlarini nafaqat uyushqoqlik va qiziqish bilan bajarishi, balki ularning mohiyatini tushunib ish usullarini bajarishning to‘g‘riligiga o‘zlari mustaqil ravishda baho berishga o‘rganadilar.

5. Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazishga tayyorgarlik. Barcha mashg‘ulotlar kirish suhbat bilan boshlanadi, uning davomida Usta tayanch korxona, uning tarixi, mahsulotlari haqida gapirib beradi, shuningdek, ta’lim muassasasi va o‘zi haqida, o‘zining faoliyati, ta’lim muassasasida necha yil ishlaganligi haqida aytib berish tavsiya etiladi. Yangi kelgan o‘quvchilar kasb tavsifi va ustaxona bilan tanishishida ustanning ma’ruzasidan nafaqat qiziqarli ma’lumotlar va tushunchalarga ega bo‘lishi, balki barchasini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishlari uchun harakat qilish kerak.

Amaliy mashg‘ulotlarda tayyorlashi kerak bo‘lgan mahsulotlarni va ta’lim muassasasi bitiruvchilari o‘z qo‘llari bilan tayyorlangan eng yaxshi namunalarni namoyish qilish, shuningdek zarur bo‘ladigan asboblar to‘plamlarini o‘quvchilarga namoish qilishi tavsiya etiladi. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilar bajarishi kerak bo‘lgan murakkab ishlar, mahsulotlar bilan oldindan tanishtirish o‘quvchilarni kasbga va amaliy mashg‘ulotlarga qiziqishini orttiradi va istiqbolli maqsad qo‘yishga yordam beradi. O‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ustanning amaliy mashg‘ulotlarga qanchalik yaxshi tayyorgarlik ko‘rishiha bog‘liq. Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rayotgan usta texnik va kasbga oid adabiyotlar bilan tanishishi, amaliy mashg‘ulotga qanday yangi materiallarni kiritish mumkinligi, o‘quv moddiy-texnik bazani, ko‘rgazmali vositalar va boshqalarini tayyorlashi kerak.

Yangi mavzuga tayyorgarlik jarayonida avval o‘tilgan darsni tahlil qilish, o‘quvchilar nazariy darslarda nimani o‘rganganligini aniqlash, so‘ngra amaliy mashg‘ulotning barcha bo‘limlari uchun vaqt miqdorini, bo‘lajak darsning maqsadi va uning o‘quv vazifalarini aniqlash, o‘quvchilar mustaqil bajaradigan mashqlar va ishlar belgilanishi lozim. Usta mukammal tayyorgarlik ko‘rib o‘quvchilar bajaradigan barcha ish usullarini ko‘rsatib beradi, o‘quvchilar xarakatlarni aniq ko‘rishlari va ularni tushunishlari uchun sharoit yaratadi. Buning uchun usta ish usullarini ko‘rsatishdan avval o‘zi ishlarni bajarish bo‘yicha mashq qilishi va e’tibor berishi kerak bo‘lgan barcha jihatlarni hisobini oladi. Mashqlarni qanchalik yengillik bilan va to‘g‘ri namoyish etishi nafaqat mashg‘ulotlardagi muvaffaqiyat balki o‘zini obro‘siga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish ta’limi ustasi amaliy mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rishiha jarayonida uni o‘tkazish metodikasini ko‘rib chiqishi, ish usullarini namoyish qilish ketma-ketligini aniqlashi, o‘quv materiali va topshiriqlarni nazariy darslarda olingan bilimlari bilan bog‘lashi, mashg‘ulot boshida savol-javob qilish hamda ko‘rsatilgan usullarni takrorlash uchun guruh orasidan o‘quvchilarni aniqlashi, mashg‘ulotning yakuniy bosqichini o‘tkazishni rejalashtirishi lozim.

6. Texnik vositalarni tayyorlash. Yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik ko‘rishiha jarayonida ishlab chiqarish ta’limi ustasi o‘quv texnik vositalaridan, ayniqsa mehnat faoliyatini modellashtirish vositalaridan foydalanishni oldindan rejalab qo‘yishi kerak. Ushbu texnik vositalardan biri bu simulyator (trenajyor)lar hisoblanadi. Ushbu qurilmalar oldindan ishlab chiqilgan dastur bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi.

Trenajyorlar bu ishlab chiqarish vositasini aniq tasvirlovchi va nazorat-axborot qurilmasidir. Trenajyorlar yordamida o‘quvchilarni ishlab chiqarish sharoitiga tayyorlash va kasbi bo‘yicha malakaga ega bo‘lishi ta’minlanadi. Ya’ni, trenajyorlarda ko‘p martalab mashqlar qilinib, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi, so‘ngra ishlab chiqarish sharoitiga,

ya’ni haqiqiy qurilma va moslamalarga o’tiladi. Usta tomonidan trenajyorlarda murakkab ish usullarini, ishlov berish jarayonlarini namoyish qilish vaqtida guruhning barcha o’quvchilarini jarayonni to’liq kuzata olishlari uchun zarur sharoitni ta’minlashi kerak bo’ladi.

Amaliy mashg’ulotlarda plakatlar, maket, model, stendlar hamda multimediya vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi. Namoyish bilan birga tushuntirish olib borilsa o’quvchilar o’zlashtirishi va xarakatlarni anglab yetishi osonroq bo’ladi. Videofilmlarni maxsus fan o’qituvchisi bilan birga nazariy dars xonasida o’tkazish mumkin.

Xulosa. Ustalarning ta’lim jarayoniga puxta tayyorgarlik ko’rishi, har tomonlama o’z ustida ishlashi, yangi bilimlarni egallashi o’quvchilarda kasbiy mahorat asoslarini shakllantirish hamda kasbiy ta’lim sifatini oshirishda xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. Sh.U.Qosimov Kasb-hunar kollejlarida amaliy kasbiy ta’limni tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari. - T.: «Fan va texnologiya», 2014, 160 bet.
2. D.Tojiboyeva. Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi. O’quv qo’llanma. -T.: «FAN VA TEXNOLOGIYA», 2007. 541 bet.
3. <https://yuz.uz/news/talim-muassasalarida-yangi-oquv-yiliga-tayyorgarlik-ishlari-talab-darajasida-emas>
4. <http://osvarke.info/258-podgotovka-mastera-k-uchebnomu-godu.html>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/podgotovka-masterov-proizvodstvennogo-obucheniya-v-aspekte-ikt-kompetentsiy>
6. https://rep.bntu.by/bitstream/handle/data/104209/Metodika_proizvodstvennogo_obucheniya.pdf?sequence=1&isAllowed=y